

MIOKARD INFARKTI KASALLIGINING TURLARI, BU KASALLIKDA DORIVOR O`SIMLIK VA SINTETIK PREPARATLARNING QO`LLANILISHI.

Turg'unova Gulsevar Dilshod qizi.

Tibbiyot fakulteti, davolash ishi yo`nalishi, 1-kurs talabasi.

gulsevarturgunova16@gmail.com

tel.+998331210873

Ushbu maqolada miokard infarkti kasalligining turlari va bu kasallikda dorivor o'simliklar va sintetik preparatlarning qo'llanilishi haqida so'z yuritiladi. Miokard infarkti yurak mushagining qon bilan ta'minlanishi to'satdan to'xtashi natijasida yurak to'qimalarining bir qismi nobud bo'lishi bilan kechadigan og'ir yurak-qon tomir kasalligidir. Asosiy e'tibor qizilmiya, do'lana va boychechak o'simliklarining yurak faoliyatiga ko'rsatadigan ijobiy ta'siriga, shuningdek aspirin, metoprolol va bisoprolol kabi sintetik dori vositalarining miokard infarktini davolashdagi o'rni va mexanizmlariga qaratilgan. Dorivor o'simliklar va sintetik preparatlarni birgalikda, shifokor nazorati ostida qo'llash miokard infarktining samarali davosini ta'minlashi mumkinligi qayd etilgan.

В данной статье рассматриваются виды инфаркта миокарда, а также применение лекарственных растений и синтетических препаратов при этом заболевании. Инфаркт миокарда — это тяжёлое сердечно-сосудистое заболевание, при котором часть сердечной ткани погибает вследствие внезапного прекращения кровоснабжения сердечной мышцы. Основное внимание уделяется положительному влиянию таких растений, как солодка, боярышник и первоцвет, на деятельность сердца, а также роли и механизмам действия синтетических лекарственных средств, таких как аспирин, метопролол и бисопролол, в лечении инфаркта миокарда. Отмечается, что совместное применение лекарственных растений и синтетических препаратов под наблюдением врача может обеспечить эффективное лечение инфаркта миокарда.

This article discusses the types of myocardial infarction and the use of medicinal plants and synthetic drugs in treating this condition. Myocardial infarction is a serious cardiovascular disease in which a part of the heart tissue dies as a result of a sudden interruption of blood supply to the heart muscle. The main focus is on the positive effects of licorice, hawthorn, and primrose plants on heart function, as well as the role and mechanisms of synthetic drugs such as aspirin, metoprolol, and bisoprolol in the treatment of myocardial infarction. It is noted that the combined use of medicinal plants and synthetic drugs under medical supervision can ensure effective treatment of myocardial infarction.

Miokard infarkti - bu yurak toj arteriyalarining tromb bilan berkilib qolishi yoki ularning siqilishi oqibatida, yurakni muskul qavatini qon bilan ta'minlanishini buzilishi natijasida yurak muskul qavatini nekrozga (mahalliy o'lim) uchrashi. Bu kasallik bilan 45—60 yoshdagi kishilar kasallanadi. Erkaklar ayollarga nisbatan miokard infarktiga ko'p chalinadilar. Bu kasallik asosan yurak sohasida bo'ladigan qattiq og'riq bilan boshlanadi. Shu belgini tekshirgan olimlardan A. L. Sirkin (1991) 94% kasallarda, F.I.Komarov va boshqalar 86-95% kasallarda miokard infarkti og'riq bilan boshlanadi, deb ko'rsatishgan. O g'riq kuchli bo'ladi. Bemor ko'pincha chidolmaydi. Keyingi yillarda miokard infarkti kasalligi tobora ko'payib boryapti.

1. STEMI (ST-segment ko'tarilgan miokard infarkti)

STEMI — elektrokardiogrammada ST segmentining ko'tarilishi bilan xarakterlanadigan og'ir turdagi miokard infarktidir. Bu yurak mushagining to'liq qon ta'minotidan uzilishi natijasida kelib chiqadi.

STEMI odatda koronar arteriyaning to'liq trombozi bilan bog'liq. Arteriya ichida aterosklerotik plaka yorilgach, tromb hosil bo'lib, qon oqimi butunlay to'xtaydi.

2. NSTEMI (ST segmenti ko'tarilmagan miokard infarkti)

NSTEMI — EKGda ST segmentining ko'tarilishi kuzatilmaydigan, biroq yurak biomarkerlari (troponin, CK-MB) oshishi bilan tashxislanadigan infarkt turidir.

Ushbu infarkt turi ko'pincha koronar arteriyaning qisman to'silishi yoki aterosklerotik plaka ustida trombning to'liq bo'lmagan yopilishi tufayli yuzaga keladi.

3. Subendokardial miokard infarkti

Subendokardial MI — miokardning faqat ichki qatlamlari, ya'ni endokardga yaqin qismi nekrozga uchraydigan turidir.

Arteriya to'liq emas, qisman to'silgan holatlarda yoki yurakka yetib boradigan qon miqdori kamaygan vaziyatlarda kuzatiladi.

4. Transmural miokard infarkti

Transmural MI — miokard devorining barcha qatlamlari, ya'ni endokarddan epikardgacha to'liq shikastlanadigan og'ir infarkt turidir.

Kasallik kelib chiqishining asosiy sababi koronar arteriyalarning aterosklerotik plaka bilan to'silishi va tromb hosil bo'lishi hisoblanadi. Bunga yana bir qancha sabablarni keltirish mumkin:

1. Koronar arteriya kasalliklari va ateroskleroz

Aterosklerotik plaka hosil bo'lishi — miokard infarktining eng ko'p uchraydigan sababi.

Plaka yorilishi natijasida tromb hosil bo'ladi, koronar arteriya qisman yoki to'liq to'siladi.

Shu bilan yurak mushagiga kislorod yetkazilishi to'xtaydi va nekroz boshlanadi.

2. Tromboz va emboliya

Koronar arteriya ichida qon ivishi (tromboz) MIga olib keladi.

Kamroq hollarda, tromb yurakdan yoki boshqa qon tomirlaridan ko'chib kelishi (emboliy) mumkin.

3. Koronar spazm

Yurak arteriyasining qisqa muddatli torayishi (spazm) ham infarktga sabab bo'lishi mumkin.

Bu ko'pincha variant angina (Prinzmetal angina) bilan bog'liq bo'ladi.

Spazm vaqtida mushak qisqa muddatga kislorodsiz qoladi, ba'zan nekroz rivojlanadi.

4. O'tkir qon ta'minoti buzilishi

Qon bosimining keskin pasayishi yoki shok holatlari yurak mushagining yetarlicha kislorod olmasligiga olib keladi.

Bu o'ng yoki chap qorincha shikastlanishiga sabab bo'lishi mumkin.

5. Yurak ritmi buzilishlari

Ayrim hollarda tez-tez aritmiya (masalan, supraventrikulyar tachikardiya) qon oqimini buzadi.

Natijada mushak qismida ishemiya va nekroz yuzaga kelishi mumkin.

6. Yurakning boshqa kasalliklari

Kardiyomiopatiya, yurak yetishmovchiligi yoki oldingi infarktlar qoldirgan shikastlar MI xavfini oshiradi.

Bu kasallikni davolashda dori-darmonlar bilan birga o'simliklar va ularning ekstraktlari yordamchi vosita sifatida qo'llaniladi. O'simliklar yurak faoliyatini qo'llab-quvvatlash, qon tomirlarini mustahkamlash va xolesterin miqdorini nazorat qilishda foydali.

1. **Boychechak**- Aspirinning tabiiy manbai bo'lib, qonning ivishini kamaytiradi va tromb hosil bo'lish xavfini pasaytiradi.

Boychechak asabiylik, stress, xavotir va uyqusizlikni kamaytirishda keng qo'llanadi.

Yurak urishini barqarorlashtirishga yordam berishi mumkin.

Qon ivishining oldini olish

Boychechak tarkibidagi salitsilatlar qon ivish xususiyatini kamaytiradi, tromb hosil bo'lish xavfini pasaytiradi.

Shu sababli MI profilaktikasida va MI'dan keyingi reabilitatsiyada yordamchi vosita sifatida ishlatiladi.

Miokard infarktidan keyin yurak mushagida yallig'lanish jarayoni yuz beradi.

Boychechak tarkibidagi tabiiy moddalar yallig'lanishni kamaytiradi va mushak shikastlanishini kamaytirishga yordam beradi.

Flavonoidlar va antioksidantlar qon tomir devorini mustahkamlaydi, arteriyalar elastikligini oshiradi va gipertoniya xavfini kamaytiradi.

2. **Qizilmiya** -Yallig‘lanishni kamaytiradi. Miokard infarktida organizmda yallig‘lanish darajasi oshadi; qizilmiya bu jarayonni pasaytirishi mumkin.

Flavonoidlar yurak mushaklarining kislorod iste‘molini yaxshilaydi, yurak qisqarishini kuchaytiradi.

Miokard infarkti natijasida shikastlangan qismning qayta tiklanishiga yordam beradi.

Qizilmiya qon tomirlarini kengaytiradi (vazodilatator ta’sir), shuning uchun gipertoniya xavfini k

maytiradi. Antioksidant va yallig‘lanishga qarshi ta’sir

Yurak mushagidagi erkin radikallar va yallig‘lanishni kamaytiradi.

Miokard infarktidan keyingi komplikatsiyalarni kamaytirishga yordam beradi.

Qizilmiya qon aylanishini rag‘batlantiradi, koronar arteriyalarda kislorod yetkazilishini oshiradi.

Antioksidant ta’sir ko‘rsatadi. Yurak hujayralarining shikastlanishini kamaytirishga yordam beradi.

3. **Do‘lana** qadimdan yurak-qon tomir tizimi kasalliklarida qo‘llanilgan eng mashhur o‘simliklardan biridir

Yurak mushaklarini kuchaytiradi. Flavonoidlar miokardni kislorod bilan ta’minlanishini yaxshilaydi.

Qon aylanishini yaxshilaydi. Koronar tomirlarni kengaytirib, yurakka tushadigan yukni kamaytiradi.

Arterial bosimni me’yorga keltirishga yordam beradi. Past bosimda ko‘taradi, yuqori bosimda pasaytiradi — adaptogen ta’sirga ega. Aritmiyani kamaytiradi. Do‘lana ekstraktlari yurak ritmini barqarorlashtiruvchi xususiyatga ega.

Dori vositalari MI davrida hayot saqlash, asoratlarni kamaytirish va qaytalanishni oldini olish uchun muhim ahamiyatga ega.

Aspirin, yoki atsetilsalitsil kislota, isitmani tushiruvchi, og‘riq qoldiruvchi va yallig‘lanishga qarshi vosita hisoblanadi. Shuningdek, u qon ivishini sekinlashtiruvchi

va trombositlar agregatsiyasiga qarshi ta'sir ko'rsatadi, shuning uchun u tromboz va trombozni davolashda ishlatiladi.

Aspirin trombositlarning bir-biriga yopishishini to'xtatadi. Bu esa qon tomirlarida tromb hosil bo'lish ehtimolini kamaytiradi.

Miokard infarktida asosiy dori sifatida beriladi.

Koronar arteriyani yopib qo'ygan trombnings kattalashishini to'xtatadi.

Qayta infarkt xavfini kamaytiradi

Stent qo'yilgan bemorlarda majburiy dori sifatida ishlatiladi.

Metoprolol - bu yurak urishini sekinlashtiruvchi va qon bosimini tushiruvchi beta-bloker dori. U gipertenziya, stenokardiya (ko'krak qafasidagi og'riq) va yurak xurujidan keyin ishlatiladi, shuningdek, bosh aylanishi yoki charchoqni boshdan kechiradigan bemorlarga kechasi qabul qilish tavsiya etiladi. Ba'zi sport turlarida, ayniqsa kam iste'mol qilinadigan sportlarda, metoprolol taqiqlangan, chunki u yurak urishini kamaytirishi mumkin.

Metoprolol.

Metoprolol yurak urish tezligini sekinlashtiradi, qon bosimini pasaytiradi va yurakning kislorodga bo'lgan ehtiyojini kamaytiradi.

Miokard infarktida yurakka tushadigan yukni kamaytiradi.

Aritmiya xavfini pasaytiradi.

Yurak mushagining qon bilan ta'minlanishini yaxshilaydi.

Yurak yetishmovchiligi bo'lgan bemorlarga ham qo'llanadi.

Bisoprolol-selektiv beta-1 adrenergik retseptorlari blokeridir bo'lib, u yurak tezligini sekinlashtirish va qisqarish kuchini kamaytirish orqali ishlaydi, shu bilan yurakning kislorodga bo'lgan ehtiyojini kamaytiradi. U yuqori qon bosimini (gipertenziya), yurak etishmovchiligini, angina (ko'krak qafasidagi og'riq) va ayrim yurak ritmi buzilishlarini (masalan, atriya fibrillatsiya) davolash uchun ishlatiladi.

Bisoprolol yurak tezligini kamaytiradi, bu esa miokard kislorodga bo'lgan talabini pasaytiradi.

Yurak qisqarishini kuchaytirish (negative inotropic effect)

Yurak mushagining qisqarishini kamaytiradi, shu bilan MI paytida yurakka tushadigan yukni kamaytiradi.

Qon bosimini pasaytirish

Beta-1 retseptorlarni bloklab, simpatik nerv tizimi ta'sirini kamaytiradi va arterial bosimni normallashtiradi.

Arritmiyalarga qarshi ta'sir

MI natijasida yuzaga keladigan yurak ritmi buzilishlarini kamaytiradi.

Miokard infarkti — yurak mushaklarining qon bilan yetarli ta'minlanmasligi natijasida yuzaga keladigan jiddiy kasallik bo'lib, hayot uchun xavfli asoratlar keltirib chiqarishi mumkin. Kasallik ko'pincha ateroskleroz, tromb hosil bo'lishi va koronar arteriya spazmi bilan bog'liq bo'lib, uning rivojlanishida yuqori qon bosimi, diabet, chekish va noto'g'ri ovqatlanish kabi omillar muhim rol o'ynaydi.

Miokard infarkti turlari — STEMI, NSTEMI, subendokardial va transmural MI — shikastlangan yurak mushagining joylashuvi va og'irligiga qarab farqlanadi. Tez va to'g'ri davolash kasallik oqibatlarini kamaytirishda hal qiluvchi ahamiyatga ega.

Dori vositalari — aspirin, heparin, beta-blokerlar (metoprolol, bisoprolol), nitratlar, statinlar va ACE inhibitorlari — MI davolash va profilaktikasida asosiy o'rin tutadi. Ular yurak ishini yengillashtiradi, tromblar hosil bo'lishini oldini oladi, MI qaytalanishini kamaytiradi va bemorning uzoq muddatli sog'lig'ini saqlashga yordam beradi. Tabiiy o'simlik preparatlari (qizilmiya, boychechak, dolana) esa qo'shimcha sifatida yurakni qo'llab-quvvatlaydi, qon aylanishini yaxshilaydi va antioksidant ta'sir ko'rsatadi

Foydalanilgan adabiyotlar.

1. O'zbekiston Respublikasi Sog'liqni Saqlash Vazirligi. «Miokard infarkti va surunkali yurak yetishmovchiligi» qo'llanma.
2. Sobirov E., Bobirovna D. "Miokard infarkti kasalligi va uni davolash usullari." Yurt Faxri jurnali.
3. Sobirjonova R. "Miokard infarkti va uning asoratlari." Pedagogik Tadqiqotlar Jurnali.

4. Ahrorov A.A. "Miokard infarkti turli yoshlar o'rtasida klinik kechishi va erta diagnostik usullari." TMA dissertatsiyasi.
5. Alyavi A.L., Kenjayev S.R., Latipov N.M. "ST elevatsiyali miokard infarkti bo'lgan bemorlarda reperfuziyadan keyingi chap qorinchani funksiyasini baholash." Kardiorespirator tadqiqotlar jurnali.
6. "Myocardial Infarction: Treatment Guidelines" — Cardiology maqolasi (PMC).